

“Hamkorlik-yutuqqa erishish kafolati”

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti va Toshkent shahar Shayxontoxur tumani 192-sonli maktab bilan hamkorlikda 2018 yil oktyabr-dekabr oyida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish maqsadidagi “Men shu aziz vatan farzandiman!” shiori ostida turkum ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha chora tadbirlar rejasi tasdiqlangan. 2018 yil 23 noyabr kuni tasdiqlangan rejaga asosan, 192-sonli maktabning 8-9-sinflar hamda 10-11-sinflar o'quvchilari bilan “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti dekani O.R.Kucharov, “Iqtisodiyot” kafedrasida i.f.n., dotsent G'.Do'stmurodov va “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari J.Turdiyevlar ishtirokida “Men buyuk yurt farzandiman” mavzusida uchrashuv o'tkazildi. Tadbirni 192-sonli maktab direktori Islomova Dildora Shavkatovna kirish so'zi bilan ochib berib, maktab o'quvchilarini institut hodimlari bilan tanishtirdi. “SXT va B” fakulteti dekani O.Kucharov so'zga chiqib, Institut va fakultet to'g'risida o'quvchilarni atroflicha tanishtirdi va institutdagi yaratilgan imkoniyatlar to'g'risida taqdimot o'tkazdi. “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti G'.Do'stmurodov o'quvchilarni iqtisodiyot yo'nalishi va sohalariga oid ma'lumotlar va yangiliklar xususida ma'ruza va taqdimot qildi va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish borasida o'z maslahatlari bilan o'rtoqlashdi. “SXT va B” fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev o'quvchilar bilan “Men buyuk yurt farzandiman” mavzusida ma'naviy-ma'rifiy muloqot o'tkazib, o'quvchilarni vatanni sevish, uni ardoqlash, tariximiz va ajdodlarimiz ilmiy-ma'naviy me'roslarini o'qib o'rganish va munosib avlod bo'lish kerakligi to'g'risidagi fikr va mulohazalari va kasbga yo'naltirish borasida ma'ruza qildi. Tadbir savol-javoblar va ko'taringki ruhda bo'lib o'tdi.



“SXT va B” fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev